



## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-oktabr 2021  
Ma'qullandi: 20-oktabr 2021  
Chop etildi: 25-oktabr 2021

## KALIT SO'ZLAR

Axloq, odob, ma'naviyat, ma'rifat, tarbiya

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY TARBIYALASHNI SHAKLLANTIRISH

Xamidullayeva Madinaxon Abrorxo'ja qizi

Toshkent shahridagi YODJU texnika insitituti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5594913>

## ANNOTATSIYA

*Bu maqolada Sharq mutafakkirlari, ziyolilari, ijod va ilm ahli uchun farzandlar ta'lim tarbiyasi, yosh avlodni ma'naviy va ruhiy yuksak fazilatlar egalari qilib voyaga yetkazish masalasi ilgari surilgan. Yosh avlodni ma'naviy axloqini shakllantirishda mutafakkirlarimizni pedagogik qarashlari va axloqiy tarbiyaga yo'naltirish maqsad qilib olingan.*

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan Odob-axloq (moral) (lotincha “moralis” - axloqiy; “mores” - fe'l-atvorlar) odamning xulqini normativ tartibga solishning usullaridan biri, ijtimoiy ongning alohida shakli va ijtimoiy munosabatning ko'rinishi hisoblanadi. Odobning bir nechta tavsiflari bor bolib, uning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Odob-axloq jamiyatda odamlarning yurish-turishini tartibga solish usullaridan biri hisoblanadi. U o'zida kishilarning ushbu jamiyatda yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, loyqlik va noloyqlik haqida qabul qilingan tushunchalarga muvofiq o'zaro munosabatlarining xususiyatini belgilavchi norma va tamoillarni ifodalaydi. xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari. Insoniyat

taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va



davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari ham bor. Bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'siri "Kishilarning ongidagi, ularning ma'naviyatida yuz beradigan o'zgarishlar birdaniga sodir bo'lmaydi. Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi - qayta tiklanayotganligi, - deb yozadi. I.A.Karimov shunday degan: „Jamiyatimizni yangilash va taraqqiy yettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda - hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Bu vazifaga erishish esa xalqning ijodiy yaratuvchanlik mehnatiga oilaviy tarbiyaga alohida e'tibor berish zarur. Oilaviy tarbiya asosida esa bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosi yotadi". "Turkiy guliston yoxud axloq" asari barcha pedagog va ruhshunoslar uchun qo'llanma sifatida foydalanuvchi asar bo'lib qoldi. Asarda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm" - axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu xulqlar majmuidir. Xulq esa yezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulqni ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbaxtlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular har bir insonda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, shakllanmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak deb ta'kidlaydi. O'quvchilarning ongli intizomini qaror toptirishda kundalik hayotiy faoliyati hamda unga qat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qat'iy dars jadvali, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish va ularni o'tkazish,

kundalik faoliyatni aniq rejalashtirish o'quvchining shaxsiy hayotini muayyan tartibga solishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda yosh bolalarda quydagi tarbiya mazmunini singdirish kerak.

### **Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni.**

- Sog'lom -jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik
  - Aqlli -mustaqil fikr yurita oladigan erkin shaxsni shakllantirish
  - Mehnatsevar -mehnat kishi va o'z ustida mustaqil ishlaydigan shaxs
  - Odobli -millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega bo'lgan shaxs
  - Vatanparvar -Vatani uchun, xalqi uchun fidokorona mehnat qiluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini fido qiluvchi
- Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni olib borish lozimligini ta'kidlaydi; "Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitg'il. Bolalarga muallimlar adob bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin". Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiy o'zining ko'p qirrali ijodi bilan inson bilimlari rivoji asarlarida oqilona davlat tizimi, insoniyat jamiyati haqidagi nodir va dono fikrlarga duch kelamiz. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga yerishuv haqida", "Aql ma'noli haqida risola" kabi asarlarning muallifidir. Uning uqtirishicha, insonning barcha qobiliyat va fazilatlari ikki tomonga ega. Birinchisi - tug'ma, irsiy, tabiiy xislatlar bo'lsa, ikkinchisi, tajriba, amaliyot, sharoit ta'sirida tarkib topadigan xislatlardir. Shuningdek, bola tarbiyasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan xislatlarni hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Mutafakkirning bu



qarashlari hozirgi zamon pedagogikasining muhim tamoyillaridan biri bo'lgan ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabatining birligi degan qoidaga juda mos keladi. Abdurauf Fitrat axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi hamda axloqiy tarbiyaga quyidagicha ta'rif beradi: „Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydasi va manfaat keltiradigan bo'lsin. Boshqacha aytganda, odamning fe'lu huyi va harakati yaxshi fazilatlarini tarbiyalash demakdir“. Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. . Insonning insonligini ta'minlaydigan eng oliy va abadiy qadriyatdir. Inson alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadibdurauf Fitrat tarbiya uch qismga ajratgan: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloq tarbiyasi. Abdulla Avloniy tarbiyaga shunday tarif bergan: „ Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim“. Bosh maqsadimiz hayotimizning asl mazmuni bo'lgan yoshlarni har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli inson sifatida rivojlantirish ekan, yuksak ma'naviyatli inson deganda esa ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni anglab yetgan, mustahkam milliy g'urur va iftixor tuyg'ulariga ega

ma'naviy jasorat egasi bo'lgan inson tushuniladi. Bunday fazilatli insonning kuch-qudrati manbaini – ma'naviyat tashkil etadi. (Karimov I.A )

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir va shuni aytish joizki, har bir bolani boshlang'ich sinifdayoq yuqorida aytib o'tilgan sifatlarni shakllantirish darkor.

Boshlang'ich maktabda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi samaradorligini oshirish quyidagilarni ko'zda tutadi:

Boshlang'ich sinflarda ma'naviy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning hamda fanlar aro uzviylikning o'ziga xos maqsadi va vazifalari to'g'ri belgilash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatla o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, psixologiyasi, turmush-tarzi hamda har bir maktabning mahalliy sharoitini hisobga olgan holda ma'naviy ta'lim-tarbiyaishlarini tashkil etish jarayonining o'ziga xosligini hisobga olish;

Boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini joriy etishni hisobga olingan holda yaratilgan pedagogik tizim asosida ish olib boorish

O'quvchi shaxsi ma'naviy qiyofasini belgilashda fidoiylik tushunchasi bosh omil ekanligini hisobga olib har bir boshlang'ich maktab o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonida AmirTemur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk shaxslarning adabiyot, san'at, fan, madaniyat, Vatan mudofaasi yurt obodligi sohasida ko'rsatgan fidokoronaligi, jonbozligi bilan tanishtirib borish zarur. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ma'naviyatini yaxlit tizim asosida



shakllantirish vazifasi nafaqat I-IV sinflarda o'qitiladigan o'quv materiallar mazmunini boymerosimiz bilan boyitish, o'quvchilarga ko'proq ularning ma'naviy olamini boyitadigan badiiy, tarixiy, memorialasarlari, o'zbek va jahon xalqlari ertaklari, qissa, hikoyalar o'qishni tavsiya etish, tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjohlar, ularning tarixi, bunyod etilishi bilan, balki zamonamiz qahramonlari, fidoiy insonlar, yozuvchi, olimlar, san'atkorlar, sportchilar ularning

bevosita mehnat jarayonlari natijalari bilan tanishtirib borishni kerak. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiya elementlarini tarkib toptirish faqatgina maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining bu sohadagi imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqoza qilib qolmasdan, balki ta'lim muassasasining oila, mahalla bilan hamkorlikda ish ko'rishni kun tartibiga qo'yimoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.
3. Yusupov E. "Inson kamolotining ma'naviy asoslari".
4. Jaloliddin Nuriddinov "Odob inson ko'rki".